

ARAB TILIDA ISMNING KO'PLIK SHAKLLARI VA ULARDAGI ISTISNO HOLATLAR

THE PLURAL FORMS OF THE WORD "ISM" IN ARABIC AND THE EXCEPTIONAL CASES RELATED TO THEM

Jo'raxonova Bibixojar Shukrulloh qizi
O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada, arab tilida "Ism"ning ko'plik shakllari o'rganib chiqildi. Olib borilgan izlanishlarimiz natijasida, "Ism"ning ko'plik shakllari va ularning farqlari atroflicha yoritildi. Tadqiqot ishining maqsadi, asl arab manbalariga tayangan holda "Ism"ning ko'plik shakllari va undagi istisno holatlarni aniqlashdir.

Kalit so'zlar: ism, istisno holatlar, ko'plik shakllar.

Аннотация. В данной статье были изучены формы множественного числа слова «اسم» в арабском языке. В результате проведённых исследований были всесторонне рассмотрены формы множественного числа слова «اسم» и различия между ними. Целью данного исследования является анализ форм множественного числа слова «اسم» и исключительных случаев, основанный на классических арабских источниках.

Ключевые слова: имя, исключительные случаи, формы множественно числа.

Annotation. In this article, the plural forms of the word "ism" in the Arabic language were studied. As a result of the conducted research, the plural forms of "ism" and the differences between them were comprehensively discussed. The aim of this research is to examine the plural forms of "ism" and the exceptional cases, based on classical Arabic sources.

Keywords: noun, exceptional cases, plural forms.

KIRISH. Arab tilida ma'no anglatuvchi yakka lafzga "**Kalima**" (الكلمة) deyiladi. "**Lafz**" (اللفظ) esa, harflardan iborat tovush. Kalimalar uch turga bo'linadi: ism, fe'l va harf.

Ism (الاسم)- zamonga bog'lanmagan holda yolg'iz o'zi ma'no anglatuvchi so'z. Masalan: "زيد" - "Zayd", "جمل" - "tuya", "كبير" - "katta", "واحد" - "bir". Keltirilgan misollardan shu ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilidagi ot, sifat, son, olmosh, ravish va harakat nomi arab tilida bitta nom bilan – "ism" deb yuritiladi.

Fe'l (الفعل)- uch zamon – o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlardan biriga bog'langan holda yolg'iz o'zi ma'no anglatuvchi so'zdir.

Masalan: "كتب" - yozdi, "يكتب" - yozyapti, "اكتب" - yoz. Demak, fe'l uch qismga bo'linadi: **Moziy**(o'tgan zamon), **Muzore'** (hozirgi-kelasi zamon) hamda **Amr** (buyruq fe'li).

Harf (الحرف) - ism yoki fe'lga qo'shilgandagina ma'no anglatuvchi so'z.

Masalan: ذهب من البيت Uydan kettim.

Bu yerdagi "من" mustaqil ma'noga ega emas, balki ism yoki fe'lga qo'shilgandan so'ng mustaqil ma'no yuklaydi.

Mavzu dolzarbligi. Bugungi kunda arab tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xususan, arab tilidagi ismning ko'plik shakllari murakkab va xilma-xil bo'lib, ularni to'g'ri anglash va qo'llash til o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, ko'plik shakllarini noto'g'ri qo'llash matn mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois mazkur tadqiqot arab tili grammatikasini chuqurroq o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Hattoki, bu haqida mashhur mutafakkirlar ham o'z fikrini bayon etgan.

Al-Jurjoniy (الجرجاني) – balog'at ilmi mutafakkiri:

«تنوع الجمع في العربية باب من أبواب الإعجاز البياني»

Ma'nosi: "Arab tilidagi ko'plik shakllarining xilma-xilligi bayoniy mo'jizalardan biridir".

Ibn Jinniy (ابن جني)-Til falsafasi va sarf ilmi ustasi:

«اختلاف صيغ الجمع ليس عبثاً، بل هو لاختلاف الدلالات»

Ma'nosi: "Ko'plik shakllarining turlicha bo'lishi behuda emas, balki ma'no farqlarini ifodalash uchundir".

Sibavayh (سيبويه)-Arab nahv ilmining asoschisi:

«إنَّ بابَ الجمعِ من أشرفِ أبوابِ العربية، لأنَّه يدلُّ على دقَّةِ المعنى واتِّساعِ اللغة»

Ma'nosi: "Ko'plik boblari arab tilining eng sharaflari bo'limlaridan biridir, chunki u ma'noning nozikligi va tilning kengligini ko'rsatadi".

Tahlil. Ism son jihatidan uch qismga bo'linadi:

1. **Mufrad** (المُفْرَدُ)- bitta songa ishora qiluvchi ism;

2. **Musanna** (المُتَنِّي)-ikkita songa ishora qiluvchi ism;

3. **Jam'** (الْجَمْعُ)-ikkitadan ko'p songa ishora qiluvchi ism, ya'ni arab tilida ko'plik son gap ikkita ortiq shaxs yoki predmet haqida ketganida ishlatiladi.

Ko'plik son morfologik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. **To'g'ri ko'plik** (الصَّحِيحُ الْجَمْعُ)

2. **Siniq ko'plik** (التَّكْسِيرُ جَمْعُ)

1. **To'g'ri ko'plik** - mufradining ko'rinishi o'zgarishlardan saqlangan holda yasalgan va so'zning oxiriga ma'lum qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladigan ko'plikdir. U ikki qismga bo'linadi:

• **To'g'ri muzakkar ko'plik** (جَمْعُ الْمَذَكَّرِ السَّالِمِ)

• **To'g'ri muannas ko'plik** (جَمْعُ الْمُؤَنَّثِ السَّالِمِ)

• To'g'ri muzakkar ko'plik - mufradining oxiriga va:v va fathali nu:n (نون) yoki ya va fathali nu:n(ين) qo'shish orqali ikkita ko'p muzakkarga dalolat qilgan ism.

Bu ko'plikning mufradi ko'pincha oqil bo'ladi.

Masalan: محمد/محمود - محمد، مسلمين/مسلمون - مسلم

Ayrim hollarda g'oyri oqil bo'lishi ham mumkin. Masalan: وابلين/وابلون/وابل

Keling, to'g'ri muzakkar ko'plikni qay o'rinlarda ishlatish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Kasb-hunar, mansab, qarindosh-urug'chilik munosabatlarini bildiruvchi muzakkar ismlarda; Ammo ayrim muzakkar bo'lmagan ismlarda ham foydalanish mumkin. Masalan: سنة- سنون;

• To'g'ri muannas ko'plik – mufradining oxiriga “alif va ta” (تات) qo'shish orqali yasaladigan ko'plik. Ushbu ko'plikning mufradi muzakkar ham, muannas ham, oqil ham, g'oyri oqil ham bo'lishi mumkin. Masalan:

Oqil muannasga misol: زینب - زینبات (Zaynab)

Oqil muzakkarga misol: طلحات - طلحة (Tolha)

G'oyri oqil muannasga misol: بقرات - بقرة (Sigir)

G'oyri oqil muzakkarga misol: حمامات - حمام (Hammom)

Ayrim istisno so'zlarda ya'ni oxirida “ئا” qo'shimchasi bilan tugagan muannas jinsdagi so'zlarning to'g'ri ko'pligi hosil qilinganda, “ء” tovushi “و” ga aylanadi va “تات” qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: حمراء - حمراء, سموات - سماء

Oxiri alifi maqsura bilan tugagan muannas jinsdagi so'zlarning to'g'ri ko'pligi hosil qilinganda esa alifi maqsura “ي” ga aylantiriladi. Va “تات” qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: بشرى - بشریات

2. Siniq ko'plik- mufradining ko'rinishi o'zgartirilgan holda yasaladigan ya'ni so'zning o'zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o'zgarishi, noo'zak undoshlarning kirishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik. Masalan:

Siniq ko'plik har bir so'zdan o'ziga xos vaznda hosil bo'ladi. Bu vaznlar anchagina bo'lib, ularni ma'lum qoida asosida tartibga solib bo'lmaydi. Mufradi bir xil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi har xil vaznda, mufradi har xil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi bir xil vaznda bo'lishi mumkin. Arab tilida eng ko'p uchraydigan siniq ko'plik vaznlari:

1. كُتِبَ - فُعُولٌ (kitoblar)

2. رَجُلٌ → رَجَالٌ - فَعَالٌ (erkaklar)

3. قَلَمٌ → أَقْلَامٌ - أَفْعَالٌ (qalamlar)

4. عَالِمٌ → عُلَمَاءٌ - فُعَلَاءٌ (olimlar)

5. فَتَى → فِتْيَةٌ - فَعَلَةٌ (yigitlar)

6. قَرِغَالٌ → غُرَابٌ → غُرَبٌ (qarg'alar)

Jam'ning yana bir turi borki, “Jam'i qilla” (جَمْعُ الْقِلَّةِ) dir. U kam miqdorni bildiradigan ko'plik shakli. Odatda uchtadan o'n tagacha bo'lgan narsalarga ishlatiladi. Uning asosiy to'rtta qolipi bor. Ular:

1. أَفْعَلَةٌ

• كِتَابٌ → أَكْتِبَةٌ (bir nechta kitob)

• قَلَمٌ → أَقْلَمَةٌ (bir nechta qalam)

2. أَفْعَلٌ

• نَهْرٌ → أَنْهَرٌ (bir nechta daryo)

• سَطْرٌ → أَسْطُرٌ (bir nechta satr)

3. أَفْعَالٌ

• بَيْتٌ → أَبْيَاتٌ (bir nechta uy)

• جَبَلٌ → أَجْبَالٌ (bir nechta tog')

4. فَعَلَةٌ

• فَتَى → فِتْيَةٌ (bir nechta yigit)

• غُلَامٌ → غُلَمَةٌ (bir nechta bola)

Yana ba'zi bir ismlar borki, ularning mufradi jam'idan “ة” bilan farqlanadi :
نخلة – نخل (xurmo-xurmolar), صخرة - صخر (qoya-qoyalar), تمر - تمر (xurmo-xurmolar);

Xulosa. Shunday qilib, ismlarning ko'plik shakli ikki xil to'g'ri va siniq bo'lishini va to'g'ri ko'plikning ham ikki xil muzakkar va muannas ko'rinishi mavjud ekanligini va istisno holatdagi so'zlar ya'ni alifi maqsura va boshqalariga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda bo'ladigan o'zgarishlar hamda ko'plikning uchtadan o'ntagacha bo'lgan ismlarda jam'i qilla ishlatilishi mumkinligi namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, siniq ko'plikning bir necha mashhur qoliplari borligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibrohimov N, Yusupov M, Oripov A. Arab tili gramatikasi. I jild. - T.: 2024.
2. Elmuratov A, Onarboyev M, Zohidov Q. Arab adabiy tili. Ikkinchi kitob. T.: 2024.
3. Ochilov S, Maksumov M. Aysarun nahv (Eng oson nahv) T.: 2020.
4. الأمثلة في الصرف - sarfdagi qoliplar. Muallif noma'lum. Ilk sharh egasi Muslihuiddin Mustafo Sururiy. O'zbekcha sharh egasi Shamsuddin Sadruddin.